

CHEXOV VA QAHHOR NIGOHIDA TUSH TALQINI

Odiljonova Durdona Nodir qizi
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti
E-mail: durdona2002x@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Qahhorning “Og‘riq tishlar” va Anton Chexovning “Vanka” hikoyalaridagi tush obrazlarini o‘zaro taqqoslashga bag‘ishlangan. Mazkur asarlarda tush va haqiqat o‘rtasidagi ziddiyatlar orqali adiblarning milliy hamda universal qarashlari aks etgan. Ularni qiyoslab chuqur o‘rganish esa o‘zbek va jahon adabiyotidagi tush motivining yangi talqinlarini kashf qilishga, o‘rganilmagan jihatlarini ochishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tush, Qahhor, Chexov, kechinma, ramz, obraz, hayot, kelajak, bashorat, umid.

ТОЛКОВАНИЕ СНОВИДЕНИЙ ГЛАЗАМИ ЧЕХОВА И КАХХОРА

Аннотация. Данная статья посвящена сравнению образов сновидения в рассказах «Болят зубы» Абдуллы Каххора и «Ванька» Антона Чехова. Эти произведения отражают национальные и общечеловеческие взгляды писателей через конфликт мечты и реальности. Их сравнительное и углубленное исследование послужит открытию новых трактовок мотива сновидения в узбекской и мировой литературе, раскрытию его неизученных сторон.

Ключевые слова: Мечта, Каххор, Чехов, опыт, символ, образ, жизнь, будущее, предсказание, надежда.

DREAM INTERPRETATION IN THE EYES OF CHEKHOV AND QAHHOR

Abstract: This article is devoted to the comparison of dream images in the stories "Aching Teeth" by Abdulla Qahhor and "Vanka" by Anton Chekhov. These works reflect the national and universal views of writers through the conflict between dream and reality. Their comparative and in-depth study will serve to discover new interpretations of the dream motif in Uzbek and world literature, and reveal its unexplored aspects..

Keywords: Dream, Anger, Chekhov, experience, symbol, image, life, future, prophecy, hope.

Kirish. Jahon adabiyotshunosligida nasriy hikoyalarda tush motivini badiiy maqsadga bog‘lagan holda qo‘llash, tush detalidan qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish, syujet voqealarini o‘zaro bog‘lagan holda shaklan va mazmunan yaxlit

bir badiiy shaklni yaratish masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, tushning badiiy talqini orqali muallif – qahramon – kitobxon aloqasini mustahkamlash, uning badiiy-estetik vazifalarini, ifoda vositasi va usuli bo'lib kelishini ilmiy asoslash milliy adabiyotshunoslik fanining ustuvor vazifalaridan biridir. Tushning badiiy asar kompozitsiyasidagi o'rni hamda badiiy talqini xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar adabiyotda tushdan foydalanish an'anasining shakllanish omillari, poetik imkoniyatlari, tadrijiy takomili, tushning asar strukturasiidagi o'rni va estetik vazifalari, psixoanaliz vositasi bo'lib kelishi, tushga ishonch bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlarning asarlardagi badiiy talqini, hayotiy va ramziy, noestetik va estetik mohiyati kabi masalalarni o'rganishni dolzarb vazifa qilib qo'yimoqda. Tush nima, degan savolga turli davrlarda turlicha javob berishgan.¹ Bu fikrlar bir-birini inkor qiladigan va bir-birini takrorlaydigan qarashlardir. Tush deb atalmish sirga insoniyat haligacha o'zining aniq bir bahosini berganicha yo'q; u haqida so'nggi bir to'xtamga, aniq bir fikrga kelinmagan. Zero, tushning o'zi kabi u haqda bildirilayotgan fikrlar ham poyonsiz va rang-barangdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jabbor Eshonqulning “Tush haqidagi mifologik qarashlar” deb nomlangan tadqiqotida “Tush haqida shunchalik ko'p aytilgan, gapirilgan, yozilganki, ularni bir joyga yig'ish, jamlash ko'p vaqt va katta imkoniyatni talab qiladi. Biroq tush maxsus juda kam o'rganilgan. Shuning uchun bu mavzudagi ilmiy adabiyotlar barmoq bilan sanarli. Shunday bo'lsa-da, u hamma davrlarda ham faylasuflar, tarixchilar va adabiyotchilarda katta qiziqish uyg'otib kelgan. Jamiyat taraqqiyotining biror bir bosqichi yo'q-ki, unda tushga ahamiyat berilmagan bo'lsin. Ibtidoiy jamoa davridayoq ajdodlarimiz tushga katta e'tibor bilan qarashgan, undagi ramzlarning siri va mohiyatini anglashga harakat qilishgan. Ana shuning mahsuli o'laroq, tushning ko'plab ta'birlari yuzaga kelgan”, degan fikrlarni qayd qilib o'tadi.²

Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'otit turk” asarida tush so'zining bir necha xil ma'no anglatishini yozib, shunday deydi: “Tush – uyqudagi aldanish, ixtilom bo'lish. Tush ko'rmish o'g'lon – ixtilom bo'lgan bola... Tush yordi – tushni yo'ydi, ta'birladi”.³

Qadimgi yozma yodgorliklar, jumladan, “Qutadg'u bilig”da ham tush ayni shaklda qo'llangan.

Turkiyalik olim Bahouddin O'gal shunday bir uyg'ur afsonasini keltiradi: “Bukuxon qavmini aql-idrok bilan boshqargan. Tushiga bir ruh kirib, uni Qut tog'iga olib boradi. Bu tush yetti yilu olti oy va yigirma ikki kun takrorlanadi. Har doim tushiga Ko'k ruhi kiradi. Oxirgi tushida Ko'k ruhi unga butun dunyoga hokim bo'lishini

¹ Bekjonova, M. (2017). “O'zbek adabiyotida tush motivi”, “Adabiyotshunoslik jurnal”, № 4, 45–52.

²Jabbor Eshonqulning “Tush haqidagi mifologik qarashlar”. Qarshi Nasaf nashriyoti (1999).

³Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” (2008).

bashorat etadi”⁴.

Alisher Navoiy ijodida tush talqini masalasi alohida tadqiqot mavzusi. Biroq bu o‘rinda shuni aytib o‘tish kerakki, allomaning deyarli barcha asarlarida, jumladan, “Xamsa”da qahramonning ichki kechinmalari, ruhiyat tasviri tush orqali ochib beriladi. Ayniqsa, “Lison ut — tayr”ni biz Shayx San‘on va Tarso malikasining tushlarisiz tasavvur qila olmaymiz. Tadqiqotchi F.Isomiddinov o‘zining “Shayx San‘on haqidagi qissalarning qiyosiy tahlili” nomli nomzodlik ishida Attor, Navoiyning hayoti va ijodida tushlar muhim o‘rin tutganiga to‘xtalib o‘tgan.⁵

Tush haqidagi mifologik qarashlar *folklorshunos olim Jabbor Eshonqul tadqiqotlarida, Abdulla Ulug‘ovning “Tush g‘aroyib jumboq” nomli maqolasida*,⁶ Istamova Shohida Maxsudovnaning “Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari” mavzusidagi dissertatsiyasida ilmiy o‘rganilgan.⁷ Biroq o‘zbek va jahon adabiyotida tush motivi qiyosiy jihatdan tadqiq etilmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada dunyoga mashhur Chexov va Qahhor ijodida ham aks etgan tush falsafasini o‘rganishga jur‘at etdik. Aslida adabiyotda tush obrazlari insonning ichki dunyosini ochib berish, orzular va haqiqat ziddiyatini yoritishda muhim vosita hisoblanadi. Bu an‘ana ikki adib asrlariga ham jo bo‘lgan.

Anton Chexovning “Vanka” hikoyasida oilasi va ona mehridan mahrum bo‘lgan kichik yoshdagi bola tushida bobosi bilan tinch va farovon hayot kechirishni orzu qiladi. Yozuvchi mazkur tush orqali Vankaning haqiqatdan qochish istagini ifodalaydi, ijtimoiy tengsizlik va yetimlikning ruhiy iztiroblarini ochib beradi. Vanka tushida bobosi bilan o‘z uyiga qaytib, tinch va baxtli hayot kechirishni orzu qiladi.⁸ Bu tush uning haqiqatdan qochish istagini aks ettiradi. Shuningdek, tush bola qalbining beg‘ubor orzularini, haqiqiy hayotdagi ijtimoiy tengsizlik va yolg‘izlikni ham ifodalagan. Tushning tragik ohangi esa hikoya yakunida bolakayning maktubi manzilga yetib bormasligi bilan kuchayadi.

Tush aslida orzu va umidni aks ettirsa-da, hikoyaning fojiaiy yakuni tushning amalga oshmasligini ko‘rsatadi. Hikoya quyidagicha yakunlanadi: “Bir soatlardan keyin umidlar allasi ostida qattiq uyquga ketdi... Tushiga pech kirdi. Pechda bobosi yalang oyoqlarini pastga osiltirib, oshpaz xotinlarga xat o‘qib berayotgan emish... Pech yonida Vyun dumini likillatib aylanib yurganmish...”.⁹ Go‘yoki hikoyada tush motivi orqali tasvirlangan jarayon xulosa yanglig‘ yangraydi.

⁴ Bahouddin O‘gal “Sabanci University in Turkey — The dream screen: An artistic analysis of the representation of dreams” (2015).

⁵ F.Isomiddinovning “Shayx San‘on haqidagi qissalarning qiyosiy tahlili” (2008).

⁶ “Jahon adabiyoti”, (2013-yil, 6-son). (<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdulla-ulugov-tush-garoyib-jumboq>)

⁷ Shohida Maxsudovnaning “Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari” (2016).

⁸ Chexov, A.P. (1982). “To‘liq asarlar to‘plami”. Moskva: Nauka.

⁹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/anton-chexov-1860-1904-rossiya/anton-chexov-vanka-hikoya>

Abdulla Qahhorning “Og‘riq tishlar” asarida esa qahramon barcha ko‘rgan-kechirganlarini tushga aylanib qolishini juda istaydi. Bu jarayon ham ani asrning yakuniy qismida aks etadi. Adib ayni so‘zlar bilan kitobxonni to‘g‘ri xulosa chiqarishga chorlaydi. Ya‘nikim, asar qahramoni Zargarov real hayotdagi iztiroblardan qochib, tushida taskin topishni istaydi. Tush orqali bu og‘riqlardan xalos bo‘lishini his qiladi.¹⁰ Buning natijasida mazkur obrazning psixologik iztiroblari yengillashtiriladi. Qolaversa, milliy an‘analar va real hayotdagi azob-uqubatlar yoritiladi. Bunda ham, tush vaqtinchalik orom bersa-da, uyg‘ongandan so‘ng qahramon haqiqat bilan yuzmayuz kelishini anglaydi.

Tahlil natijalari. Ikkala hikoyada ham tush obrazlari qahramonning ruhiy holati va real hayotdagi iztiroblarini aks ettiradi, orzu va haqiqat o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Biroq Chexovda tush universal ahamiyatga ega bo‘lib, insoniyatning umid va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashini ifodalaydi. Qahhor esa tushni milliy va psixologik nuqtai nazardan ko‘rsatib, real hayotning qattiq sharoitlariga urg‘u beradi. Ikkala hikoyada ham tush qahramonning ichki iztiroblarini yengillashtiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Tush motivi orqali qahramonlarning real hayotdagi azoblari, ijtimoiy tengsizliklari va umidsizliklari yoritiladi. Tush va haqiqat o‘rtasidagi ziddiyat orqali hikoyalarning dramatik mazmuni kuchayadi.

“Vanka”da universallikka urg‘u berilgan bo‘lib, har qanday ijtimoiy tabaqadagi inson uchun tushunarlidir. “Og‘riq tishlar” esa milliylik va an‘naviylikka asoslangan, o‘zbek xalqining real hayotga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi. Chexov tushni universallik va tragizm vositasi sifatida ishlatsa, Qahhor uni milliy va psixologik ramz sifatida qo‘llaydi. Tush va haqiqat o‘rtasidagi ziddiyat har ikki hikoyaning dramatik ta‘sirini kuchaytiradi, o‘quvchini chuqur o‘yga chorlaydi.

Xulosa. Chexov va Qahhor ijodida tush motivi yozuvchilar badiiy uslubi va mahoratini ifodalovchi yorqin vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Chexovning tushlari falsafiy va universal ma‘nolarni aks ettirsa, Qahhorning tushlari milliy va ijtimoiy mazmuni ochib beradi. Ushbu motivning o‘zaro qiyosiy tahlili adabiy asarlarida inson ruhiyati va ijtimoiy muammolarni ochib berishdagi turli yondashuvlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Vankaning fojiasi va “Og‘riq tishlar”dagi psixologik iztiroblar tush orqali o‘quvchini real haqiqatga yetaklaydi. Orzu va haqiqat o‘rtasidagi qarama-qarshilik ikkala asarning ham emotsional kuchini oshiradi. Ikkala hikoyada tush obrazlari qahramonlarning orzu, umid va iztiroblarini yorqin ifodalaydi. Tush vositasi orqali yozuvchilar insonning ichki dunyosini ochib, haqiqatning achchiqligini o‘quvchiga teranroq his qildiradilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, qisqa asrlarda ham tush motivining mahorat bilan qo‘llanilishi asosiy mazmuni kitobxonga yanada aniq va tushunarli yetib borishini ta‘minlaydi. Asarlarning asliyatini, qahramonlarning ichki

¹⁰ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-og-riq-tishlar-komediya>

kechinmalari va holatini o'quvchiga yanada aniqroq his qildirishga xizmat qiladi. Holatni, asarda sodir bo'lgan voqelik va vaziyatni realligini, ta'sirchan va emotsionalligini oshiradi. Shuning uchun ham katta-yu kichik asarlarda tush motivini qo'llash an'anasi zamonlar osha davom etib kelmoqda. Bu orqali nafaqat o'tmishimiz ijodkorlari, balki bugunning zamonaviy adiblari ham aynan tush motivini go'zal ifodalash orqali o'z kitobxoniga yanada yaqinroq bo'lishni, ko'zlagan maqsadiga to'laqonli erishishni maqsad qilganligi shubhasiz. Albatta har bir yozuvchi ijodida tush obrazi turli yo'sinda keladi, boisi mazkur motivni asarning qaysi qismida kelishi ham syujet mazmunini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Yuqorida tahlil qilganlarimiz, Qahhor va Chexov asarlarida tush motivining xulosa yanglig' yangrashi ham ayni muddao bo'lgan va har qanday o'quvchi hislarini mavjlantirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor, A. (1983). "Asarlar to'plami". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
2. Chexov, A.P. (1982). "To'liq asarlar to'plami". Moskva: Nauka.
3. Karimov, K. (2008). "Abdulla Qahhor ijodida ramziy obrazlar". Toshkent: Akademnashr.
4. Rayfield, D. (1999). "Anton Chekhov: A Life". New York: Northwestern University Press.
5. Freyd, Z. (2015). "Tushlarning talqini". Toshkent: Sharq nashriyoti.
6. Bekjonova, M. (2017). "O'zbek adabiyotida tush motivi", "Adabiyotshunoslik jurnal", № 4, 45–52.
7. Jabbor Eshonqulning "Tush haqidagi mifologik qarashlar" . Qarshi Nasaf nashriyoti (1999).
8. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (2008).
9. F. Isomiddinovning "Shayx San'on haqidagi qissalarning qiyosiy tahlili" (2008).
10. Bahouddin O'gal "Sabanci University in Turkey — The dream screen: An artistic analysis of the representation of dreams" (2015).
11. Shohida Maxsudovnaning "Badiiy asarda tushning poetik-kompozitsion vazifalari" (2016).